

XALQARO MOLIYAVIY TASHKILOTLARNING O'ZBEKİSTON

IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11404003>

Rustamova Dilnoza

TDIU "Moliya" fakulteti 3-bosqich talabasi

Nodira Safarova

TDIU "Moliya" kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning O'zbekiston iqtisodiyotida qanchalik o'rin tutganini tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ayrim muammolarni hal qilishdagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat tashqi qarzi, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, korxonalar.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyoti ja'dal tarzda barcha sohalar, jumladan bank sohasi, valyuta sektori, raqamli sfera, iqtisodiyotning ekologik integratsiyalashuvi va boshqa sohalarda rivojlanmoqda. Dunyo mamlakatlari bo'ylab Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro rivojlanish assosiatsiyasi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki kabi yirik moliyaviy tashkilotlar izchil va faol ravishda ishlar olib bormoqda. Shu jumladan, O'zbekiston ham ushbu xalqaro tashkilotlar bilan diplomatik a'lloqalar o'rnatib kerakli shartnomalarni imzolamoqda. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi bir qancha xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan mamlakatimizni a'lloqlari mavjud.

Mamlakatimiz iqtisodiyotdagi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bu xalqaro moliya munosabatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Moliya bozori iqtisodiyotni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni oshirish, kapital jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishni ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyotida moliyaviy munosabatlarning o'rni esa beqiyosdir, zero, ular moliyaviy resurslarining harakati shakllanishi, taqsimlanishi va xalqaro moliya bozori institutlari hamda moliyaviy institutlar va tashkilotlarga asoslangan tarkib bo'yicha murakkab bo'lgan munosabatlar tizimi hisoblanadi. Shu sababli, hozirgi vaqtga

kelib, O‘zbekiston ko‘plab xalqaro moliya tashkilotlari bilan iqtisodiy munosabatlarni keng yo‘lga qo‘yib hamda samarali hamkorlik a’loqalarini o‘rnatib kelmoqda. Bu xalqaro moliya tashkilotlari O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy sohalariga bir qator investitsiyalar kiritgan. Investitsion loyihibar soni ko‘p va hamkorlik a’loqalarini mustamkamlashga doimiy ravishda alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Sababi shundaki, xalqaro bozorga chiqish, davlatning eksport salohiyatini oshirish, aholining ijtimoiy qo‘llab quvvatlash, hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini yaxshilashda xalqaro moliya institutlarni o‘rni beqiyosdir.

Xalqaro moliya institutlari bilan o‘zaro hamkorlik mamlakatimizning istiqboli va taraqqiyotining salohiyati uchun quyidagilar rejalashtirilgan:

- 1) iqtisodiyotda samarali yangi ish o‘rinlarini yaratish;
- 2) aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni oshirish;
- 3) mamlakatimiz ichki bozorining rivojlanishi va Markaziy Osiyo sarhadlarida peshqadamlikka erishish;
- 4) shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz sanoatini yanada rivojlantirishni o‘z oldiga maqsadi qo‘ygan.

Shu jumladan Prezidentimiz Sh.Miziyoyevning 2018-yil 16-iyuldagagi PQ-3857-son qaroriga muvofiq “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”[1] nizom tasdiqlangan. 2019-yil 16-yanvardagi “Xalqaro moliya institutlari mablag‘laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 40-qarori mavjud. PF-4947-sonli farmonda xalqaro moliya institutlari bilan amalga oshirilayotgan masalalar bo‘yicha alohida to‘xtalib o‘tilgan. Ushbu farmonda kapitalni jalb qilish, korxonalar, moliyaviy tashkilotlar va xalqaro munosabatlarni tashkil etuvchi moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorini o‘rtva va uzoq muddatga istiqbolli rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilgan. Hozirda O‘zbekiston Respublikasining asosiy islohoti doirasida xalqaro moliya institutlari


bilan o‘zaro hamkorliklar doirasida institutsional islohotlarda iqtisodiy siyosat muhitining maqsad va vazifalari belgilangan.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar davlat moliya sektorida asosan davlat byudjetini defitsitini qoplashda, mamlakatimizdagi korxonalarни rivojlanishida, boshqa davlatlar bilan siyosiy strategik sherikchilik o‘rnatishda beqiyos ahamiyatga ega.



1-rasm. Davlat tashqi qarzi kreditorlari, Foizlarda

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, davlat tomonidan jalb qilingan tashqi qarzlarning asosiy qismi Osiyo taraqqiyot bankidan 44%ni (6.2 mlrd.\$.), Jahon bankidan 39%ni (5.6 mlrd.\$.) va Islom taraqqiyot bankidan 6%ni (0,9 mlrd.\$.), boshqa XMillardan 11%ni (1.5mlrd.\$) tashkil etgan. Shuni ta`kidlash kerakki, tashqi qarz olish manbalarining diversifikasiysi va xorijiy moliya institutlarining davlat tashqi qarzidagi ulushi 44,0% tashkil etgan.



2-rasm. Davlat tashqi qarzi tarmoqlar kesimida,[3] mlrd AQSH dollar

Yuqoridagi rasmida ko‘rinib turibdiki, 2023-yilda 25879,4 mln AQSH dollari davlat tashqi qarzi tarmoqlar kesimida taqsimlangan. Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki qarzning asosiy qismi 8764 mln AQSH doll ya’ni 34% byudjetni qo’llab-quvvatlashga ketgan, yoqilg‘i sanoatiga bo‘lsa 5358 mln AQSH doll ya’ni 21%ni, qishloq va suv xo‘jaligi, transport va va transport infratuzilmasiga 10%dan to‘g‘ri kelgan qolgan soxalarga 10%dan kam miqdorlarda to‘g‘ri kelgan. 2023-yilda asosiy ulushni byudjet soxasiga ajratilib ijtimoiy sohaga ajratilgan.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar davlat moliya sektorida asosiy o‘rinni egallaydi. Misol uchun korxonalar mamlakat ichkarisida kredit olgandan ko‘ra xalqaro moliya tashkilotlaridan olgani qulayroq, chunki xalqaro moliya tashkilotlari bergen kreditni imtiyozi qulay va foiz stavkalari kam bo‘ladi. Bu qulayliklar tadbirkorlar uchun biznesni rivojlantirishda imkoniyatlari ko‘p bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va xalqaro moliya tashkilotlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishda, iqtisodiy-moliyaviy rivojlanish omillaridan kelib chiqib mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning moliyakredit tizimini zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Shu bilan bir qatorda xalqaro moliya tashkilotlariga a’zo bo‘lish jarayonini tezlashtirish va

xalqaro moliya institulari pul mablag‘lari evaziga investitsion loyihalarini ko‘paytirish va ularning xajmini oshirish orqali mamlakatni rivojlantirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://lex.uz/docs/-3823564?ONDATE=27.01.2021>.
2. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4165252?ONDATE=25.06.2021>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisod va Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portal ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

